Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 1 (2023) · "Axborot oqimlari va intellektual tizimlarning ijtimoiy, iqtisodiy va texnik-texnol... DOI: 10.5281/zenodo.24318346

materiallar to'plami

CHIGITLI PAXTANI JINLASHDA BAJARILISHI LOZIM BO'LGAN TEXNOLOGIK TA'LABLAR TAHLILI

Pulatova O.X, "Gumanitar fanlar" kafedrasi dotsenti
Andijon Mashinasozlik instituti, Andijon, O'zbekiston respublikasi
Ruziboyev J.Sh, "Payvandlash ishlab chiqarish texnologiyasi va jihozlari" mutaxassisligi magistranti,
Andijon Mashinasozlik instituti, Andijon, O'zbekiston respublikasi

Annotatsiya. Ushbu tezisda paxta tolasini chigitdan ajratish jarayonining bir turi bo'lgan arrali jinlashning mohiyati, texnologik jarayonga qo'yildigan ta'lablar va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nuqsonlar va ularning oqibatlari hamda xulosa qismidan iborat.

Аннотация. В данной дипломной работе изложена сущность пилоочистки, представляющей собой разновидность процесса отделения хлопкового волокна от семян, требования, предъявляемые к технологическому процессу, возможные дефекты и их последствия, а также заключительная часть.

Annotation. This thesis contains the essence of saw ginning, which is a type of process of separating cotton fiber from the seed, the demands placed on the technological process and possible defects and their consequences, as well as the conclusion part.

Kalit so'zlar: paxta tolasi, jinlash, dastlabki ishlash, tozalash, kolosnink, texnologik ta'lablar.

Ключевые слова: хлопковое волокно, джинирование, предварительная обработка, очистка, колосинка, технологические требования.

Key words: cotton fiber, ginning, preliminary processing, cleaning, colosink, technological requirements.

Chigitli paxta quritish-tozalash va tozalash sexlarida konditsion namlikkacha quritilib va xas-cho'plardan tozalangandan keyin zavodning bosh ishlab chiqarish binosiga jinlash (tolasini ajratish) uchun yuboriladi[1]. Jinlash chigitli paxtani dastlabki ishlash texnologik jarayonning asosiy operatsiyasi bo'lib hisoblanadi, bunda chigitli paxta tolasi uning chigitidan ajratiladi. Jinlash jarayoni chigitli paxtanining tolasini chigitidan mexanik kuch bilan ajratishdan iborat[2].


Tolaning chigit bilan bog'lanish kuchi yakka tolaning uzilish kuchiga qaraganda 2÷3 marta kam bo'lgani uchun jinlash jarayonida o'zining tabiiy xususiyatlarini (uzunlik, ingichkalik, pishganlik darajasi) saqlagan holda tubidan uzilib[3], chigitidan ajralib chiqadi.

Jinning ish kamerasiga (7) tushgan chigitli paxtani chigit tarog'i (1) ning yonida aylanayotgan arra (4) tishlari ilib olib, АБ yoyi bo'ylab sudrab kolosnik (5) ga olib keladi. Tishlarga ilingan chigitli paxta bo'lakchalari boshqa paxta bo'lakchalariga ilashib, ularni ham tortadi, kameradagi hamma chigitli paxta aylana boshlaydi. Shunday qilib, arraga tishlariga qarshi tomonga aylanuvchi chigitli paxta uki (xom ashyo uki) hosil bo'lib (6), u arra tishlarini paxta tolasi bilan uzluksiz ta'minlaydi[4].

Published: 10.11.2023

Cite this article: Pulatova O.X, Ruziboyev J.Sh (2023). Chigitli paxtani jinlashda bajarilishi lozim bo'lgan texnologik ta'lablar tahlili. Emro Science and Education, 1(1). https://doi.org/10.5281/zenodo.24318346

© 2023 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.



1-rasm. Arrali jin shchi kamerasida jinlash texnologiyasining sxemasi.

1-chigit tarog‘i; 2-arra vali;3-arralar oralig‘idagi qistirma; 4-arrali silindr; 5-qobirg‘a (kolosnik) panjara; 6-xomashyo valigi; 7-ish kamerasi;

Arra tishlaridagi tolalar soplodan chiqqan havo oqimi bilan ajratilib, umumiy tola tortish kuvuriga uzatiladi. Kolosniklarning ish qismida tirqishlar kengligi 3,2 mm dan (eng kichik chigitning o‘lchamlaridan) katta bo‘lmagani uchun chigit o‘tib keta olmasdan, aylanib turgan chigitli paxta ukiga (xom ashyo ukiga) qo‘shilib ketadi va hamma tolalari ajralmaguncha aylanishda davom etadi[5].

Chigitli paxtani jinlashda quyidagi texnologik talablar bajarilishi lozim:

- *chigitlardan yigirishga yaroqli tolalarni hammasini ajratish;*
- *jin ish organlarining tolaga ta’siri natijasida tola va chigitda nuqsonlar paydo bo‘lmasligi;*
- *chigitli paxta bo‘lakchalari jindan chiqayotgan tola yoki chigitga qo‘shilib ketmasligi;*
- *o‘lik va iflos aralashmalardan tozalash samaradorligi yuqori bo‘lishi;*
- *chiqayotgan chigitning tukliligini va ulikdagi tola miqdorini rostlash imkoniyati bo‘lishi kerak.*

Jinlash jarayonida paxta tolasi chigit bilan bir qatorda qisman ifloslikdan ham tozalanishi ta’lab etilaadi. Jinlash jarayonida tolani ifloslikdan qisman tozalash va toladan o‘likni ajratish bilan birga quyidagi nuqsonlar paydo bo‘lishi mumkin:

- chigit po‘chog‘ining bo‘lakchasi yopishgan tolalar;
- uzilgan va shikastlangan tolalar, tugunchalar;
- buralib qolgan tolalar, gajaklar, puch chigitlar

Xulosa

Jinlash nuqsonlarini paydo qilmaslik uchun, jinlarni va boshqa tozalash uskunalarini texnologik talabga muvofiq ishlatish va ularni doim ishga soz holda saqlash kerak. Agar ishchi qismlar soz holatda bo‘lmasa jinlash jarayonida amal qilish kerak bo‘lgan ta’lablarning bajarilishini imkoni bo‘lmaydi. Birgina holatni oladigan bo‘lsak, arrali jinlarning ishchi qismi sanalgan kolosniklarga arrali silindirlarning tegib

o‘tishi natijasida paxta tolasining kuyishi va kolosniklarning ishchi yuzasi eyilishi natijasida chigitning tolaga qo‘shilib ketishi ish unimini sezilarli darajada pasaytirib yuboradi. Bu esa korxonaga hozirgi raqobatbardosh zamonda bu katta zarar keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. RUZIBOYEV, JAVOXIR. “ISHCHI YUZASI YEYILGAN ARRALI JIN KOLOSNIKLARNI ISH RESURSINI OSHIRISH”. AndMI, 2023.
2. Komil o‘g‘li Ashurboyev Jasurbek KAM UGLERODLI POLATLARNI PAYVANDLASHDA PAYVAND CHOKLARIDAGI G'OVAKLAR [Журнал]. - Москва : Новости образования: исследование в XXI веке, 2023/1/1 г.. - 6 : Т. 1.
3. RUZIBOYEV, J.; XASHIMOV, X. Chigitli paxtani jinlash jarayonining bugungi kundagi ahamiyati. **AndMI**, 2023.
4. Saidasror M., Muxamadqodir O. AVTOMOBIL YONILG'I BAKLARINI PAYVANDLASH TEXNOLOGIYASI //DUNYODA TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYA G'OYALARI. – 2023. – Т. 15. – Yo‘q. 6. – 7-11-betlar.
5. RUZIBOYEV, J.; XASHIMOV, X. Jinlash jarayonida arra diski bilan kolasnik panjara orasida vujudga keladigan nosozliklar tahlili va ularni bartaraf etish usullari. **AndMI**, 2023.